

## ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI

*Ravshanov Husan Abdiquil o'g'li*  
*GulDU Sitqi bo'lim, masofaviy ta'lim*  
*kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro baholash tadqiqot dasturlarining ahamiyati, hamda o'quvchilarning kreativ fikrlashni baholashning kompetensiyaviy modellari va o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Abstract.** This article provides information on the importance of international assessment research programs, as well as competency models and specifics for assessing students' creative thinking.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о важности международных исследовательских программ оценивания, а также о моделях компетенций и особенностях оценивания творческого мышления учащихся.

Bu ta'limning barcha turida tahsil oluvchi o'quvchilarning g'oyalari yaratish jarayonida qay darajada ishtirok etishi, g'oyalarning ahamiyati va yangiligini inobatga olib, ularga nisbatan o'z munosabatlarini qay tartibda bildirishini va o'zlari kutgan natijaga erishmagunga qadar g'oyalarni yaratishda davom etishini anglatadi.

Bolani ijodkor shaxsga aylantirish pedagogik jarayon texnologiyasiga bog'liq. Axborot reproduktiv o'quv jarayonida muammo-ijodiy va ijodiy o'zgarishlar. Fikrlash rivojlanish jarayonlarini faollashtirish va tezlashtirish bo'yicha oslashtirilgan "Tezyutsion davolash muolajasi" pedagogika sohasida keng tarqaldi.

Bu dunyoda o'qitishning yagona tizimi deyarli emas. Bu ijodkorlik usullari bo'yicha bolalar tomonidan o'zlashtirishning maqbul shakli tizimi bo'lgan ijodiy vazifalar tizimidir, chunki Bolalarning asosiy faoliyatining asosiy turi - bu o'yin, keyin barcha ijodiy vazifalar, shuningdek, muvaffaqiyatli ijodkorlik uchun ish olib boradigan ijodiy shaxsning sifatlari haqida umumlashtirilgan.<sup>1</sup>

Xalq ta'limi vazirligi va AQSHning USAID tashkiloti hamkorligida o'tkazilayotgan "Boshlang'ich sinflarda o'qish va matematikani baholash" (Early Grade Reading/Math Assessment - EGRA/EGMA) tadqiqotining maqsadi nima?

Bugungi kunda ushbu tashkilot tomonidan taqdim etilayotgan kompleks va samarali baholash vositalari dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida qo'llanilmoqda.

Xalq ta'limi vazirligining USAID tashkiloti bilan hamkorlikda EGRA va EGMA tadqiqotlarini o'tkazishdan maqsadi boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatining ayni

<sup>1</sup> Nuraliyeva N. B. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TRIZ-TEKNIKASINI QO'LLANISHI | JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS .Home / 2.Archives / 3.Vol. 7 No. 4 (2022): Journal of new century innovations | Volume-7 | 79-80-betlar.

paytdagi real holatini aniqlash va olingan natijalarga asoslangan holda kelgusida zaruriy islohotlarni amalga oshirishdan iborat.

EGRA/EGMA — bu:

- O`qish va matematika ko`nikmalarini baholash uchun sodda va samarali testlar;
- individual va og`zaki nazoratlar;
- tanlov asosidagi "tizimli diagnostika" chora-tadbirlari;
- hukumat va boshqa manfaatdor tomonlarga o`quvchilarning o`quv faoliyati to`g`risidagi ma'lumotlarni taqdim etish ta'limni samaradorligini oshirishdagi ehtiyojlari aniqlash imkoniyati.

Pedagogik faoliyatning mazmuni asosan yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga tarbiya berish uchun, layoqatli, talab doirasida barcha aqliy va axloqiy salohiyatga ega bo`lgan maxsus tayyorgarlikdan o`tgan shaxslarning alohida faoliyatiga aytiladi. Aniqroq qilib aytganda o`qituvchilarning mehnat faoliyati komil insonni tarbiyalashga qaratilgan murakkab, ziddiyatli va uzoq davom etadigan jarayondir.<sup>2</sup>

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarori asosida PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarini O`zbekistonda joriy etilishi belgilab qo`yilgan bo`lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo`yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan.

Mazkur xalqaro baholash dasturlari va ular doirasidagi tadqiqotlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan muayyan davriylik asosida dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan OECD hamda IEA tashkilotlari o`rtasida imzolangan kelishuv hujjatlariga binoan O`zbekiston Xalqaro o`quvchilarni baholash PISA-2022 (avvalgi PISA-2021) hamda O`quvchilarning matnni o`qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi PIRLS-2021 da ishtirok etishga kirishilgan.

Endilikda, TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishildi. Bu borada IEA tashkilotining "Xalqaro matematik va ilmiy tadqiqotlar (TIMSS) 2023 tendensiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifi"ga muvofiq O`zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo`yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o`rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

<sup>2</sup> Nuraliyeva Nargiza., Developing the Professional Activity of Primary Education Teachers. International Journal of Social Science Research and Review, Volume 5, Issue 5, May, 2022, Pages: 259-264

IEA rahbariyati O‘zbekistonning ushbu tadqiqotda qatnashishidan mamnun ekanligini aytib, O‘zbekistonning ta’lim sharoitiga TIMSSning qaysi turi mos kelishi haqida maslahatlar berdi. Bundan tashqari, IEA 2021-yil fevral oyida Germaniyaning Gamburg shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan milliy tadqiqot koordinatorlarining birinchi yig‘ilishiga taklif qildi va Boston kolleji mutaxassisleri bilan turli xil baholash modellarini muhokama qilish, tadqiqotlar yo‘nalishlarining afzallik va kamchiliklari haqida muhokamalar olib borish uchun qulay imkoniyat yaratib berilishi haqida ma’lum qildi.

TIMSS (Trends in International mathematics and science study) 4- va 8- sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash dasturi bo‘lib, bu tadqiqot to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo‘shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillari o‘rganiladi.

TIMSS dasturi o‘zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo‘lib, 2019-yilga qadar har to‘rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko‘rish mumkin. TIMSS 2015 tadqiqot natijalariga ko‘ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta’lim tizimi eng yuqori ko‘rsatkichlarni egallagan.

PISA 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholasa, PIRLS 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholaydi. TIMSS xalqaro baholash dasturi esa, 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholaydi. PIRLS va TIMSSni bir-birini to‘ldiruvchi dasturlar deb e’tirof etish mumkin.

PISA va TIMSS tadqiqotlarini, ularning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholashini inobatga olinsa, Respublikamizda matematika sohasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarga ham hamnafas bo‘ladi deb aytish mumkin.

O‘zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llash, o‘z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Tadqiqotda, O‘zbekistonning 4- va 8- sinf o‘quvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan matematika va tabiiy fanlardan savodxonligi qay darajada yuqori? Matematika va tabiiy fanlar 4- va 8- sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli fanmi? Oila tomonidan farzandlarga matematikani va tabiiy fanlarni o‘zlashtirishda qanday hissa qo‘shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoni qanday tashkil etilgan? O‘zbekiston matematika va tabiiy fanlar o‘qitish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o‘ziga xosligi bormi, agar bor bo‘lsa u nimalarda namoyon bo‘ladi? Mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha o‘qituvchilar metodlari boshqa mamlakatlar o‘qituvchilari metodlaridan nimasi bilan farq qiladi? kabi asosiy masalalar o‘rganiladi va tadqiq etiladi.

Tadqiqotning har to‘rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta’lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O‘zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, adabiyotlarda keltirilishicha, kreativlik mashq qilish yoki bilim olish bilan orttirilishi mumkin. Xalqaro baholash dasturida o‘quvchilarni kreativ fikrlashni baholash biror ishni amalga oshirish uchun kerakli bo‘lgan tug‘ma qobiliyatga ega bo‘lish kreativlikka oid berilgan topshiriqlarga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning kreativ fikrlashiga imkon beradigan o‘zgaruvchan iqtidorlariga katta e’tibor qaratadi. Bunday turdagi kreativ fikrlash nafaqat san’at yoki ijodiy bayon kabi o‘quvchilarning ichki dunyolarini ifoda qilishlarini talab etadigan ilmiy kontekstlarda, balki g‘oyalar umumlashuvi keng miqyosdagi ijtimoiy muammolar va murakkabliklarni tahlil qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Amabile, T. (1997), “Motivating creativity in organizations: on doing what you love and loving  
California Management Review, Vol. 40/1, pp. 39-58
2. Amabile, T. (1996), Creativity In Context: Update To The Social Psychology Of Creativity.
3. Nuraliyeva N. B. Boshlang'ich ta'limda triz-texnikasini qo'llanishi | journal of new century innovations 1.Home / 2.Archives / 3.Vol. 7 No. 4 (2022): Journal of new century innovations | Volume-7 |79-80-betlar.
4. Nuraliyeva Nargiza., Developing the Professional Activity of Primary Education Teachers. International Journal of Social Science Research and Review, Volume 5, Issue 5, May, 2022, Pages: 259-264